



ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW

journal homepage:

<https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl>



THE ROLE OF THE SAKAS AND MASSAGETAE IN THE PAST OF THE UZBEK AND TAJIK NATIONS

Farrukh Tursunov

Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor, First Vice-Rector for Youth Affairs and Spiritual and Educational Affairs, Researcher

University of Science and Technology

Karshi State University

Karshi, Uzbekistan

E-mail: f.tursunov83@mail.ru

ABOUT ARTICLE

Key words: Cimmerians, Sakas, Dagals, Massagetae, Sarmatians, Sumerians, Odysseus, “The Epic of Gilgamesh”, Tomaris, ocean waters, Tanais.

Received: 10.12.24

Accepted: 12.12.24

Published: 14.12.24

Abstract: This article shows the place of the Cimmerians, Saks, Dagals and Massagets who lived in Central Asia in the ancient times in the past of the Uzbek and Tajik peoples. At the same time, the role of tribes in Uzbek statehood that was able to establish cultural ties with the countries such as Babylon, Assyria, Elam and Parsua was analyzed.

SAKLAR VA MASSAGETLARNING O'ZBEK HAMDA TOJIK MILLATLARI O'TMISHIDAGI O'RNI

Farrux Tursunov

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, tadqiqotchi

Fan va texnologiyalar universiteti

Qarshi davlat universiteti

Qarshi, O'zbekiston

E-mail: f.tursunov83@mail.ru

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: kimmerlar, saklar, dahlar, massagetlar, sarmatlar, Shumer, Odissey, “Gilgamish dostoni”, To'maris, O'qyonus suvlari, Tanais.

Annotatsiya: Ushbu maqolada qadimgi davrlarda O'rta Osiyoda yashagan kimmerlar, saklar, dahlar va massagetlarning o'zbek hamda tojik millatlari o'tmishidagi o'rni ko'rsatilgan. Shu bilan birga Bobil, Ossuriya, Elam va Parsua kabi davlatlar bilan madaniy aloqalarni o'rnata olgan qabilalarning o'zbek davlatchiligidagi o'rni tahlil qilingan.

МЕСТО САКОВ И МАССАГЕТОВ В ПРОШЛОМ УЗБЕКСКОГО И ТАДЖИКСКОГО НАРОДОВ

Фаррух Турсунов

Доктор философских наук (PhD) по педагогическим наукам, доцент, первый проректор по делам молодежи и духовно-просветительской работе, научный сотрудник Университет науки и технологий

Каршинский государственный университет

Карши, Узбекистан

E-mail: f.tursunov83@mail.ru

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: киммерийцы, саки, дагалы, массагеты, сарматы, шумеры, Одиссей, «Эпос о Гильгамеше», Томарис, воды океана, Танаис.

Аннотация: В данной статье показано место киммерийцев, саков, дагалов и массагетов, живших в Средней Азии в древности в прошлом узбекского и таджикского народов. При этом проанализирована роль в узбекской государственности племен, которые смогли установить культурные связи с такими странами, как Вавилон, Ассирия, Элам и Парсуа.

KIRISH. O‘rta Osiyo hududida istiqomat qilgan dastlabki qabilalar eroniyzabon va turkiy tilli aholi bo‘lib hisoblanadi. O‘zbekiston hududiga turkiy xalqlar dastlab bronza davridan kirib kela boshlangan. O‘zbekistondagi tojiklarning kelib chiqishini tadqiq qilar ekanmiz, ularni Tojikistondan kelib qolgan degan fikrga kelmaslik kerak. To‘g‘ri qardosh xalq sifatida o‘zbeklar va tojiklarning kelib chiqishi bir asosga ega. Biroq Tojikistondagi tojik millatiga mansub aholi sonidan ko‘ra boshqa mamlakatlarda istiqomat qiluvchi tojiklarning soni ko‘pchilikni tashkil etadi. Buning sababini olis o‘tmish bilan bog‘laymiz.

O‘zbekiston tojiklarini u yoki bu hududdan kelib chiqqan dagan fikrlar ham yo‘q emas, biroq fikrimizcha o‘zbek va tojik xalqi tarkibiga eroniyzabon deb hisoblanib kelingan saklar, massagetlar, kimmerlar, sug‘diylar, baqtriyaliklarning avlodlarini ham kiritishimiz kerak. O‘zbekiston tarixi tadqiq qilinayotganda faqatgina rus tarixchilari bergan ma’lumotlarga tayanib qolmaslik kerak, masalan ayrim olimlar kimmerlarni O‘rta Osiyoning qadimgi aholisi deb hisoblaydi. O‘zbekistondagi dastlabki davlatlarning shakllanishini ham Kimmerlar, saklar va massagetlar bilan bog‘lashimiz kerak. Chunki kelib chiqishi O‘rta Osiyodan deb e’tirof etilayotgan kimmerlar Shumer davlatiga asos solgan. Saklar esa Erondagи Midiya davlati shakllanishi va mudofaasida ittifoqdosh sifatida ko‘mak bergen. Shuning uchun ham e’tirof etish kerakki, O‘rta Osiyodagi dastlabki davlatchilik shakllana boshlashi 6 ming yildan kam emas deb hisoblaymiz. Fikrimizni isbotlashga harakat qilamiz.

ASOSIY QISM. Ayrim xorijiy saytlarda O‘rta Osiyoning eng qadimgi aholisi sifatida kimmeriyalar va skiflar [8] (ya’ni saklar) e’tirof etiladi. Yana bir ma’lumotga ko‘ra, Skiflarning

urushdagi jasoratlari va xususan, otliqlari uchun ulardan qo‘rqishgan va hayratda qolishgan. Ular ot minish san’atini egallagan dastlabki odamlar edilar va ularning harakatchanligi qo‘snilari ni hayratda qoldirdi. Skiflarning Osiyodan ko‘chishi oxir-oqibat ularni Kavkaz va qora dengizning shimalidagi tekisliklarni an’anaviy ravishda boshqargan kimmerlar hududiga olib keldi. 30 yil davom etgan urushda skiflar kimmeriyarlari yo‘q qildilar va o‘zlarini g‘arbiy Forsdan Suriya va Yahudiya orqali Misr chegaralarigacha cho‘zilgan imperiya hukmdorlari sifatida ko‘rsatdilar [8]. Kimmerlar faoliyati ko‘pgina yozma manbalarda ham skiflar bilan bog‘lanadi. Kimmerlarning kelib chiqishi eroniyzabon O‘rta Osiyoning aholisi sifatida e’tirof etilib, Tarix otasi Geradot tomonidan skiflar bilan bog‘lansa ham ularni yangi madaniyat yaratuvchisi sifatida o‘z tarixi bilan bog‘lashga harakat qilishadi.

Ko‘chmanchi sak qabilalari Yevroсиyo dashtlarida ko‘chib yurganlar. Markaziy Osiyoda Sirdaryo bo‘ylari, Qozog‘iston dashtlari, Kaspiy va Orol atroflarida yashaganlar. Ilk bor sak qabilalari Ossuriya poytaxtidagi Ishtar ibodatxonasini qazish vaqtida marmar taxtaga podshoh Ashurbanipal (m. a. 669 – 631 yillar) yozdirgan bitikda qayd etilgan. Bu yozuvda kimmeriyalar sardori sak podshohi deb atalgan.

Skiflarning ko‘chmanchi qabilalari Osiyoda yashashardi. Massagetlar ularni harbiy kuch bilan siqib chiqarganlaridan so‘ng, ular Araksni kechib o‘tib kimmeriyarning erlariga kirib kelganlar (hozirda skiflar yashaydigan yurt, aytishlaricha, avval kimmeriyarniki bo‘lgan). Skiflar yaqinlashib qolgach, ko‘p sonli dushmanqa qarshi qanday chora ko‘rishni muhokama qilish uchun kimmeriyalar yig‘inga to‘plandilar. Ikki xil taklif o‘rtaga tashlandi. Ikki taraf ham o‘z taklifini qattiq himoya qilganiga qaramay, podshohlarning aytgani ma’qul ko‘rildi. Xalq bunchalik katta qo‘sish bilan urushmasdan, boshqa eralarga ko‘chib o‘tishni, podshohlar esa, o‘z erlarini bosqinchilardan qattiq turib himoya qilish kerakligini ta’kidladilar. Shunday qilib, xalq podshohlarning aytganiga ko‘nmadi, shohlar esa xalq qaroriga bo‘yin egishni istamadilar, xalq boshqa erlarga ko‘chishga, o‘z erini esa jangu jadalsiz bosqinchilarga tashlab ketishga qaror qildi; podshohlar esa xalq bilan birga qochiqinlikka ketishdan ko‘ra o‘z yurtlarida urushda o‘lishni ma’qul topdilar. Ular vatanlarida rohat-farog‘atda yashaganlaridan, bevatan quvg‘indilarning boshiga ne balolar tushishi mumkinligini yaxshi tuyardilar. Xullas, ikki qaror xalqni ikkiga bo‘ldi va ular bir-biri bilan urush boshladilar. Og‘a inilar o‘rtasidagi urushda o‘lganlarning barini Tirasa sohiliga ko‘mishdi-da (podshohlarning turbatlarini shu kunlarda ham ko‘rish mumkin), vatanlarini bark etishdi. Skiflar esa egasiz qolgan yurtni egallab oldilar [7]. Geradot bergen ma’lumotlar ham fikrimizni isbotlaydi.

Geradotning e’tirofiga ko‘ra, kimmerlar avval skiflar yeriga yashagan, biroq skiflarga qarindoshligi e’tirof etiladi. O‘rta Osiyodan topilgan ko‘pgina qabrlarda taqinchoqlar va zebu-ziynatlar, qurbanlik qilingan otlar bilan dafn qilish holatlarini kuzatamiz. Bunday urf-odatlar

kimmerlarga tegishlidir. Skiflar yurtida ulardan avval yashagan kimmerlar Yevropada shaharlar sivilizatsiyaga beqiyos hissa qo'shgan. Kimmerlar birinchi chorvadorlar va shahar quruvchilari sifatida nom qozongan. Ularning ko'rsatgan jasoratlari tufayli keltlar va Konan haqidagi afsona va rivoyatlar yaratilgan. Kimmerlarni skiflar yeriga yashaganligiga va qarindoshlik aloqalari borligi to'g'risidagi Geradotning ma'lumotlariga tayanib, ular urf-odatlarining namunalarini O'zbekiston tarixiy moddiy madaniyatida aks etganligiga tayanib o'zbek va tojik millatlarining qadimiy ajdodlaridan biri sifatida e'tirof etish lozim.

Dahlar. Bobonazar Boboxonning yozishicha, "tojik" so'zi tojiklarning tarixiy vatani shimolidagi (Baxtar chegarasidan tashqari) oriy (eron) xalqining umumiy nomi bo'lib, boshqa xalqlar "doy" nomi bilan tanilgan. "Doyi" nimani anglatishini ayta olmasam ham (endi "doyi"dan "tojik"ni olishning o'zi kifoya), "tojik" - "toj", "tazi" degani aniq.

Madaniyatshunoslar shu kungacha o'ylagan narsaning bunga aloqasi yo'q. "Doi"dan "tojik"ni tilshunoslik bazasidan ajratib olish unchalik qiyin emas. Va bu til hodisasini tasvirlash uchun ko'plab misollar mavjud. Tojikistonning hozirgi uslublaridan qanday qilib so'zning "d"si "t"ga, "y" tovushi "j" tovushiga almashtirilgan. Ilgari "sagzik" so'zi "saki" sifatdoshi uchun ham ishlatilgan. Shundan kelib chiqib, Babanazar Boboxon, ehtimol, "doyzik"ning bir shakli bo'lgan va keyinchalik "toyik" bo'lib, nihoyat "tojik" bo'lib qolgandir, degan xulosaga keladi. Avestodagi "danhha" so'zi bilan bir xil bo'lishi kerak bo'lgan yunon manbalarining "doy"si "Farvardinyasht"da bo'lib, uning ba'zi motivlari va mazmuni Avesto gotlari bilan zamondosh, hatto eshondan ham avvalroqdir", deb yozadi u [6]. Dahlar Hozirgi Turkmanistonning janubi va O'zbekistonning bir qismida yashagan qabila bo'lib, ayrim tojik olimlarining fikriga ko'ra *tojik* so'zi *daylar* nomi bilan bog'liq tarzda shakllangan.

Yana bir yozilgan ma'lumot tahsinga loyiq "Markaziy Osiyo xalqlarining yangi to'da (gala)lari, kimmeriyaliklar va skiflar o'zlarining eronlik birodarları ortidan bu tog'li o'lkaza kelishdi va Luristonada (Eronning g'arbidagi tarixiy hudud. - tarj.) otlarning egar-jabduqdarini pichoqlar va cho'qmorlar uchliklarini qoldirishdi" [4]. Bundan xulosa qilish mumkinki, Erondagi Midiya davlatining shakllanishida ham O'rta Osiyoning qadimgi xalqlari munosib o'rin tutadi. Hatto ayrim davlatlar skiflarga bir necha yillar davomida o'lpon to'lagan. "Qayta tashkil etilgandan so'ng midiyaliklarning armiyasi Ossuriyaga nihoyatda katta xavf sola boshladi. Ashshurbanipal vafot etdi, uning kuchsiz vorislari ham Garsa singari rasmiy ittifoqchilariga ham yordam ko'rsatib, o'z kuchlarini sarflashga botina olishmas edi. Ariaramna va Kirning vorislari yana Kiaksarga qaram bo'lishga majbur edilar. Ossuriyaliklar yana orqaga itg'itib yuborilgan edi, Kavkaz tog'lari va Kaspiy dengizi orasidagi o'tish yo'li orqali skiflar bostirib kelgani to'g'risidagi xabar kelganda, Nineviya midiyaliklar tomonidan qamal qilingan edi. Skiflarning qabila boshlig'i Pratofeyning o'g'li Madiyadan mag'lub bo'lgandan so'ng Kiaksar bir ziyofatda

mast bo‘lib qolgan qabila boshliqlarini o‘ldirmaguncha o‘tgan yigirma sakkiz yil mobaynida skiflarga o‘lpox to‘lashga majbur bo‘lgan” [4]. Skiflar deb izohlanayotgan qabilalar aslida saklarning o‘zi edi.

T.Nafasovning e’tirof etishicha, Qashqadaryo viloyatidagi Chiroqchi tumani nomining kelib chiqishi saklar bahodiri Shiroq nomi bilan bog‘liq. Charuk va Shiroq sirak so‘zlari bir asosdan urchigan, barchasi - bir ypyg‘-qavm nomining tovush ko‘rinishlari. Bu nomlar qadimgi sarmat atamasi bilan ham shakldosh. Sarmatlar miloddan avvalgi VII - IV asrlarda Volga bo‘yi va Ural atrofida yashaganligi ma’lum. Sarmatlar eroniy va turkiy tilda so‘zlashgan. Ularning tili, madaniyati va turmush tarzi sak va massagetlarga yaqin bo‘lgan, qardosh sanalgan. Milodning 4-asrida sarmatlar turkiy xunnlar tomonidan zabit etilgan. Keyinchalik turkiy xalqlarga qo‘silib, chatishib, birlashib ketgan. Tarixiy ma’lumotlar qadimgi sak(shak)lar, sarmatlarning ma’lum bir qismi turkiy xalq bo‘lganligini isbotlamoqda. Sarmat, charuq, chiroq, sirak atamalarining bosh qismi *cap, char, shir, sir* so‘zi qadimgi turkiy xalqlarning nomidir [3].

XULOSA. Sak va massaget qabilalarining shakllanishi O‘zbekistondagi dastlabki davlatchilikning shakllanishi bilan bog‘liq deb hisoblaymiz. Chunki, kimmerlar va sarmatlar bilan birga O‘rta Osiyoda saklar va massagetlar konfederasiysi shakllangan. Kimmerlar (keyinchalik shumerlar deb atalgan) skiflar va massagetlar o‘z davrida dunyodagi eng qudratli deb hisoblangan Urartu, Ossuriya, Elam, Parsua kabi davlatlarga xavf sola olgan va ayrim davlatlarga dushmanidan mudofaa qilish uchun yordam bergen. Asl kelib chiqishi O‘rta Osiyodan deb hisoblangan kimmerlar Mesopotamiya aholisiga mixxat shaklidagi dastlabki yozuvni va jangovar aravalarda harakatlanishni o‘rgatgan. Massagetlar Kir qo‘sishinlarini ham mag‘lub eta oldi.

Kirning o‘limi bexosdan yuz berdi. Araks daryosi narigi tomonida yashovchi sak-massagetlar qabilasi uning imperiyasining shimoli-sharqiylariga chegaralariga taxdid sola boshladi. Jazo qo‘llash chorasi tarzidagi urush muqarrar bo‘lib qoldi va Kir bu urushni shaxsan olib borishga qaror qildi. Shaxzoda Kambisni Bobilda hokimiyat tepasida qoldirib, keksayib qolgan monarx yurishga jo‘nadi. Imperiya chegarasi Araks daryosidan o‘tishi uchun ko‘prik qurildi va Kir dushman mamlakatiga bostirib kirdi. Avval unga biroz omad kulib boqdi; keyin malika To‘maris tomonidan mamlakat ichkarisiga olib kirilgan Kir jangda mag‘lubiyatga uchradi va o‘zi yaralandi. Uch kundan so‘ng saklarning hech kimga mashhur bo‘lmagan malikasining o‘ljasiga aylangan, qachonlardir qudratli bo‘lgan istilochi vafot etdi [4].

Geradot yozgan ma’lumotlarga asoslanib To‘marisning qahramonligi yozuvchilar va rassomlar ijodidan ham o‘rin olgan.



1-rasm. Italiyalik rassom Mattia Preti (1613-1699 y.) 1670-72 yillarda chizilgan rasm [9]

Geraidot bergen ma'lumotlarga ko'ra, sarmatlar savromatlar tarzida yoziladi. "Nihoyat sakkizinchidaryo **Tanaisdir**. U yurtning yuqori qismidan oqadi. Katta ko'ldan oqib chiqib, undan-da katta – Meotida ko'liga (ko'l shoh skiflarni savromatlardan ajratib turadi) quyiladi. Tanaisga Sirgis deb ataluvchi boshqa bir daryo ham quyiladi" [7]. O'zbekiston hududida qadimdan turli qabilalar va urug'lar yashagan bo'lib, ularning kelib chiqishini tadqiq qilish milliy davlatchilikning shakllanganligini yanada qadimiylashtiradi. Shu bilan birga O'zbekiston hududidagi tojiklarning ham shakllanish tarixi qadimgi eroniyazabon qabilalar bilan bog'liq. Bir qishloqda yoki mahallada istiqomat qilganligi tufayli o'zbeklar orasida ham ko'pchilik tojik she'valarida so'zlasha oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Асқар Махкамов таржимаси. – Т.: “Шарқ”, 2001.- Б. 107, 335.
2. Гомер. Одиссея./Пер. с древнегреч. В. Жуковского. Вступит, статья А. Тахо-Годи; Примеч. С. Ошерова. — М.: Худож. лит., 1981. – С. 367.
3. Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. Қашқадарё вилояти қишлоқлари номининг тадқиқи. Т.: “Мұхаррир” нашриёти, 2009 й.— Б. 303-304.
4. Олмsted Альберт “Форс империяси тарихи”, таржимон: Д. Саъдуллаев. - Тошкент: “O'zbekiston” НМИУ. 2016. – Б. 20, 23, 36, 49, 54, 93-94.
5. Сагғс Ҳ. Вавилон и Ассирия. Быт, религия, культура. // <http://base.dnsgb.com.ua/files/book/vavilon-assiriya/vavilon.HTM>
6. Шарифов Ҳ. Оид ба этноними “тоҷик”. Толькон дар сарчашмаҳои таърихӣ ва осори муҳаққиқон (мавод доир ба таърихи тоҷикон). Душанбе, 2018. – С. 278-279.
7. Қадимги тарихчилар Ўрта Осиё ҳақида. – Т.: “YURIST-MEDIA MARKAZI”, 2008. – Б. 10-11,19.
8. <https://www.britannica.com/place/Central-Asia>
9. <https://www.wga.hu/frames-e.html?/html/p/preti/tomyris.html>